



AZIZ JONLARINI
TINCHLIK VA OZODLIK
UCHUN FIDO ETGAN
QAHRAMON
DOSHLARIMIZNI
VATAN HECH
UNUTMAI

“VATAN RAVNAQI, TINCHLIGI VA HIMOYASI YO‘LIDAGI QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

2025-YIL 6-MAY

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA BUXORO YENGIL SANOATI VA KADRLAR MASALASI

Utayeva Feruza Xolmamatovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Buxoro yurtimizning tarixiy hududlaridan biri hisoblanib, yengil sanoat tarmoqlari bo'lgan to'qimachilik, zardo'zlik, tikuvchilik sanoati asrlar davomida rivojlanib kelgan katta maktabga tayanadi. Jumladan, VLKSM XX yilligi va Partiya XVI s'eyzdi nomli tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasida, Trikotaj fabrikasida, Buxoro ip-gazlama kombinatida ishlab chiqarish faoliyati yuqori bo'lishi uchun salohiyatli va yetuk ishchi xodimlarni tayyorlashda juda katta samarali ishlar qilingan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov iborasi bilan aytganda: "Ikkinchi jahon urush yillari O'zbekiston tarixining uzviy bir qismi. Biz tariximizdan biror sahifani ham olib tashlamaymiz. Bu tarix bizniki, uni unutishga hech kimning haqqi yo'q". Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyul qarorida ta'kidlanganidek, bu davr bo'yicha ham ilmiy-tadqiqot olib borishda yagona obyektiv usuldan foydalanish, xolisona tarixni yaratish, jamiyat, xalq, millatning ma'naviy yuksalishiga, uni o'zligini anglatishga xizmat qilish zarurligi ta'kidlangan. 1999-yilda PF-2287-son farmoni asosida 9-may "Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilingan.[6]

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Buxoro viloyatida yengil sanoatning faoliyati juda muhim ahamiyat kasb etganligi haqida dalillar keltirilgan. Urush sharoitida mamlakatning barcha hududlarida bo'lgani kabi, Buxoroda ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot harbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan. Bu davrda yengil sanoat tarmoqlari ayniqsa, to'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal va zardo'zlik sohalari jadal rivojlandi va front hamda xalq xo'jaligini ta'minlashda muhim vazifalarni bajargan.

Urush yillarida O'zbekistonning o'ziga jami 170 dan ortiq zavod va fabrika ko'chirib keltirildi.[5] O'zbekiston hududi bo'ylab ko'chirilgan korxonalarni joylashtirishda mahalliy sharoitlar va infrastruktura inobatga olinardi. Jumladan, mashinasozlik va og'ir metallurgiya korxonalari asosan Toshkent va boshqa yirik sanoat korxonalari mavjud viloyatlarga joylashtirilgan. Shuningdek, harbiy sanoatga bog'liq bo'lmagan korxonalarni ko'chirishda ularning mahsulotlariga talabi ham inobatga olingan.

1941-yilning iyul oyidan boshlab matbuotlarda "Xotin-qizlariga" murojaatnoma e'lon qilingan. Murojaatnoma mohiyati ayollarni erkaklar o'rnini egallagan holda, front ortida mehnat qilishga safarbar etishga bag'ishlangan edi. Shundan so'ng barcha shahar va qishloqlarda mazkur murojaatnomaning mazmun-mohiyati keng muhokama etilib, xotin-qizlar erkaklar kasbini o'rganishga da'vat etilgan. 1941-yil 3-iyulda Buxoro mehnatkashlarining ko'p

ming kishilik mitingida ham xotin-qizlar erkaklar o'rnini egallashga chaqirilgan. Chaqiriqqa birinchilardan bo'lib qo'shilgan Kogon temir yo'l ishchi xotin-qizlaridan 100 kishi qisqa fursatda erkaklar o'rnini egallab, temir yo'l qatnovini bir maromda davom etishida faol bo'lgan. Temir yo'l stansiya navbatchiligida va mashinist-ayollar safi kengaygan. 1941-yil oxirigacha viloyatdagi 5 mingdan ortiq xotin-qizlar erkaklar stanoklarini egallaganlar. 1943-yilga kelib, viloyatda sanoatdagi ishchi-xizmatchilarning 82% ini xotin-qizlar tashkil qilgan. [2]

Buxorodagi tikuvchilik fabrikasi, qorako'lchilik zavodi, ipakchilik fabrikasi paxtalik kurtka, yarim shuba, parashyut uchun gazlamalar, paxta va jundan tikilgan telpaklar, qo'lqop va boshqa narsalarni ishlab chiqarishni o'zlashtirib oldilar.[3] "VLKSM 20 yilligi" nomli tikuvchilik fabrikasida "ikki yuz"chilar harakati keng tarqalib, uzluksiz ravishda bir ishchi 2-3 normani bajargan. Tikuvchi Ilyasova uzluksiz kunlik ish normani 300 foizga, tikuvchilar Raximova va Muhammadiyevalar 250-300 foizga bajarganlar. Bir oy ichida fabrikada "ikkiyuz"chilar soni 4 kishidan 22 kishiga ko'paygan.

Urush yillari Buxoroda ko'plab erkaklar frontga jo'natilgani sababli, tikuvchilik va trikotaj artellarida asosan ayollar ishlagan. Ayollar jangchilar uchun kiyim-kechak forma, poyabzal, paypoq, qo'lqop va boshqa zarur buyumlarni tikishga jalb qilingan. Artellar harbiy buyurtmalarni ham bajargan jumladan, harbiy forma, bayroqlar va bintlar ham tikilgan. Artel ishchilari nafaqat ishlab chiqarish bilan, balki moddiy yordam yig'ishda ham faol qatnashishgan: pul, kiyim-kechak, ovqat mahsulotlari yig'ib frontga yuborishgan. "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" shioriga amal qilib mehnat qilishgan.[4] Ushbu shior asosida ish olib borilgan. Artellar kunu-tun ishlagan, hatto ta'tillar ham bekor qilingan.

Sovet Ittifoqining g'arbiy hududlaridan ko'plab sanoat korxonalari evakuatsiya qilinib, O'zbekiston, jumladan Buxoroga ham joylashtirilgan. Bu nafaqat yangi texnologiyalar va uskunalarining kelishiga, balki mahalliy kadrlarning malakasini oshishiga ham olib keldi. Erkaklar frontga ketgani bois, 1942-yilga kelib, sanoatda ayollar ulushi 63,5% ga yetdi.

Yengil sanoat tarmoqlarida ishlash uchun kadrlar masalasi muhim o'rinda turgan. Mehnat zaxiralari tizimi (MZT) hunarmandchilik maktablari va FZO (rus tilida - "Fabrichnozavodskoye obucheniye") ta'lim muassasalaridan iborat bo'lib, ular davlat xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun malakali ishchi va texnik xodimlarni tayyorlash kerak edi. MZT tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalari o'qish muddati va beriladigan malakalar turlicha bo'lgan. Jumladan, hunarmandchilik va temiryo'l maktablari ta'lim olish muddati 3-4 yil, FZO maktablarida esa olti yoki o'n oy qilib belgilangan. O'qish muddatidan kelib chiqqan holda hunarmandchilik va temiryo'l maktablari bitiruvchilariga 4-5 ishchi malaka darajasi, FZO maktablari bitiruvchilarining malaka darajasi 3-4 dan iborat bo'lgan.

Qo'shimcha sifatida shuni ham ta'kidlash kerakki, 1941-1945-yillarda safarbarlik imkoniyatlari va yoshlar sonidan kelib chiqqan holda masalan, 1943-yil 26-iyundagi O'zbekiston SSR XKS ning 789-sonli qaroriga binoan respublika shaharlarida ishsiz va o'qimaydigan yoshlar soni yetarli bo'lmagan hollarda 9-10 sinf o'quvchilarini hunarmandchilik maktablariga safarbar qilish amaliyoti joriy qilingan.

Buxoro shahrida "VLKSM 20 yilligi" fabrikasida 1943-yilda fabrika-zavod ta'limini 137 nafar yigit-qiz tamomlagan. Umuman olganda 1941-1945-yillarda Buxoroda 1500 kishi fabrika-zavod ta'limini tamomlab sanoat korxonalaridagi bo'sh ishchi o'rinlarini to'ldirib, mehnat jamoalarida ishlab chiqarish hajmini oshirishga o'z hissalarini qo'shdilar.[5]

Buxoro shahridagi "Partiya XVI s'ezdi" nomli fabrikada 11 ayol "VLKSM 20 yilligi" fabrikasida 8 ayol mexanik kasbini o'zlashtirib olish tashabbusi bilan chiqishgan. Fyodorova boshliq brigada rejani 198,5 foizga 1942-yil bajarib, maqtovg'a sazovor bo'lishgan. Birinchi sex motorist Qilicheva rejani 180-190 foizga rejani bajarishgan.

Mamlakat mudofa qobiliyatini mustahkamlash va frontni qo'llab-quvvatlashda Buxoro shahar korxonalari jamoalari tomonidan davlat zayomlarini sotib olish tadbirlari ham muhim rol o'ynagan. "VLKSM 20 yilligi" fabrikasining ishchi-texnik xodimlari 3-davlat zayomiga 1-2 oylik maoshlari barobarida yozilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Buxoroda Ikkinchi jahon urushi yillarida yengil sanoat nafaqat frontga yordam berish, balki aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, ish bilan ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni saqlash vazifalarini ham bajargan. Bu yillarda to'plangan tajriba urushdan keyingi qayta tiklanish davrida sanoatning yanada rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Tavsiyalar. Tanlangan mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida to'qimachilik va tikuvchilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni yoki mutaxassislaning ahamiyatli tomonlarini tahlil etuvchi ilmiy anjuman o'tkazish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish uchun halqaro hamkorlikda investitsiyalar kiritish va bu haqida xalqaro ilmiy anjuman tashkil qilish mumkin. Yoshlarda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda, ularni bo'sh vaqtlarini unumli tashkil qilishda, shahrimizda tashkil etilgan tikuv, to'quv fabrikalari faoliyati bilan tanishtirib borilishi, yoki to'garaklar tashkil etilib, kasbiy salohiyatlarini oshirib borishni tashkil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ш.М. Мирзиёев Ўзбекистон халқига байрам табриги / "Халқ сўзи" газетаси. 2024 йил 9 май, № 90 (8713), – Б. 1.
2. Нилуфар Жўраева Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20-80 йиллари мисолида) (ўқув қўлланма). Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти Тошкент — 2013.–Б 147

3. B.Mirzaqulov Buxoro tarix zarvaraqlarida (Monografiya) “Durdona” 2018-yil -B 87.

4. Исмоилова Г. Ўзбекистонда хотин-қиз ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 22.

5. A.Shukurov // O't yurakli tikuvchilar. Buxoro haqiqati 1960-yil, 7-may

6.<https://lex.uz/docs/-212469>.

“TARIX” NI YARATGAN MARDLAR YOHUD “BUYUK G‘ALABA”GA QO‘SHILGAN HISSA

Soliyev Elyorbek Muxammadmo'sa ug'li
Fahrutdinova Nodirabegim Jasur qizi
Yangi Asr universiteti

“Bugungi ozod va erkin hayot uchun, farzandlarimizning baxti va kamoli uchun biz ularning oldida cheksiz qarzdormiz”

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev

Har bir millatning qadri va kelajagi buyuk, istiqbolli bo'lishi-o'sha millatning tarixi, xalqining mardonavor kurashi va ajdodlarining vatanparvarligi bilan namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining tarixi buyuk va faxrli bo'lgani sababli, hech shubhasiz, kelajagi ham porloq va farovon bo'ladi. Shu sababli, mustaqillikning ilk yillaridan O'zbekistonda voyaga yetayotgan yoshlarga mustaqillik ne'matining qadrini, uni asrab-avaylashdagi burchlarimizni, shu yo'lda o'z jonini fido qilgan buyuklar xotirasiga munosib ehtirom ko'rsatish kerakligi borasida izchil islohotlar olib borish boshlanib, bugungi kundagacha davom etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1999-yil 9-may kunini “Xotira va qadrlash kuni”¹¹⁶ deb e'lon qilinishi so'zimizning isbotidir. Oradan bir yil o'tib, ya'ni 2000-yilda Toshkentning Bo'zsuv sohilida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui barpo etildi. Majmua tarkibida “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeyi va shu nomdagi jamg'arma tashkil etildi¹¹⁷.

Inson xotirasi, uning muqaddas Vatandagi aziz o'rni bugungi kunda har doimgidanda e'zozlanmoqda. Inson qadri ulug'lanayotgan yurtda qadr topgan, nomi qilgan yaxshi va ezgu amallariga hamohang eslanayotgan, yosh avlod uchun Vatan ne ekanligini o'z mehnatlari bilan ko'rsatib bergan insonlarning, urush va mehnat fahriylarining, o'z umrining katta qismini xalq uchun mehnat qilishga sarflagan, o'zini yurt farovonligi va tinchligiga bag'ishlagan fidoiy

¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni “9-mayni “Xotira va qadrlash kuni” deb e'lon qilish to'g'risida”; ; 02.03.1999; PF-2243-son;

¹¹⁷ Uza.uz; 31.08.2015; Iqtisodiyot; “Ajdodlar xotirasi unutilmaydi”;

Toshpo'lotova J.N. Adabiyot, san'at va oav vositalarining O'zbekistonda xotira madaniyatini shakllantirishdagi ta'sirchan omil sifatidagi o'rni.....	706
Tuychiyeva Z.B. Xotira abadiy, qadriyat muqaddas: maktabgacha ta'limda tarixiy xotirani shakllantirishning ahamiyati.....	709
To'rayeva L.E. O'zbekistonda xotira madaniyatini shakllantirishda adabiyot, sa'nat va ommaviy axborot vositalarining o'rni.....	711
To'rayeva P.M. Farovonlik, tinchlik va vatanni himoya qilish yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi.....	714
To'raqulova D.K. Vatanni asramoq bizlarga farzdir.....	718
Turatosheva S.R., Suyunova R.G. Ta'lim sifatini oshirishda psixologik omillarning o'rni (zamonaviy yondashuvlar).....	720
Туратошева С.Р. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини моделлаштиришнинг замонавий ёндашувлари.....	725
Turgunbayeva F.Sh. Tarixga nazar solib.....	730
Turg'unova G.B. Yoshlar ongida tarixiy xotirani mustahkamlashda ta'lim tizimining roli.....	732
Turopov Y.Sh., Sharopova M.Y. Tarixiy xotira – qudratli ma'naviy boylik va g'urur-iftixor manbai.....	737
Turobova M.T. Tarixiy shaxslar va voqealar orqali yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash.....	742
Tursunmurodova R. Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unitilmaydi.....	745
Tursunova N.A. Xotira – muqaddas, qadr – aziz.....	747
Umaraliyeva R.A., Amanlikova N.R. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari jasoratining ilmiy-nazariy tahlili.....	751
Umarov I.O., A'zamjonov N.N., Komilov Sh.G'. Xotira madaniyatini shakllantirishda adabiyot, san'at va ommaviy axborot vositalarining o'rni.....	753
Umurkulova F.S., Yusufova D.R. Urush davridagi oziq-ovqat muammolari va ularning bugungi texnologik yechimlar.....	756
Umurkulova F.S, Yusufova D.R. Xotira va qadrlash kunida an'anaviy taomlarning oziq-ovqat texnologiyasida tiklanishi va ahamiyati.....	759
Umurkulova F.S., Yusufova D.R. Oziq-ovqat texnologiyasi orqali urush faxriylari salomatligini qo'llab-quvvatlash: Funktsional mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishlari.....	762
Unimova G. Yoshlar ongida tarixiy xotirani mustahkamlashda ta'lim tizimining roli.....	766
Usmonova S.I. Zamonaviy ta'lim tizimida tarixiy xotirani shakllantirish metodlari.....	768
Utayeva F.X. Ikkinchi jahon urushi yillarida buxoro yengil sanoati va kadrlar masalasi.....	772